

## SOVET DAVRIDA YURITILGAN MADANIYAT MA'RIFAT SIYOZATI VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI RO'LI

**Samandarova Farangiz Akram qizi**

*Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti,*

*Tarix yo'nalishi 402-guruuh talabasi*

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada Sovet davrida yuritilgan madaniyat va ma'rifat siyosati hamda uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Asarda Sovet Ittifoqi hududida, xususan O'zbekiston kabi respublikalarda savodsizlikni tugatish, umumiy ma'lumot darajasini oshirish, yangi ijtimoiy ong va madaniy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar yoritiladi. Tadqiqot tarixiy manbalar va zamonaviy tahlillarga tayangan holda Sovet madaniyat siyosatining murakkab va ko'p qirrali mohiyatini ochib beradi.

**Kirish .** XX asrning 20—30-yillarida madaniy-ma'naviy soha ham o'ziga xos murakkablik, qiyinchilik bilan kechdi. Urushdan keyingi yillarda O'rta Osiyo xalqlari hayotidagi eng muhim voqealarni tarixiy anglash borasida yangi urinishlar boshlanib ketdi. Xususan, O'rta Osyoning Rossiya tarkibiga kiritilishi masalasiga qiziqish kuchaydi. O'rta Osiyo tarixchilari markazdagi ilmiy institutlar olimlari bilan hamkorlikda ko'p tomlı umumlashtiruvchi tadqiqot larni nashr etishga xuddi o'sha yillari kirishdilar. Bu tadqiqotlarda ayrim O'rta Osiyo xalqlarining vujudga kelishi davridan asar chop etilgan paytgacha bo'Igan tarixiy rivojlanish yo'li o'z ifodasini topdi. 20-yillar boshlariga kelib O'zbekiston hududida madaniy qurilishning eng dolzarb vazifalaridan sanalgan sovet ta'lim tizimini shakllantirish ishlari faol boshlab yuborildi. Sovetlar O'zbekistonda yangi ta'lim tizimini yaratishga yol tutar ekan, bundan ko'zlagan asosiy maqsadlari o'lkada xalq ta'limi bo'g'inlarini ravnaq toptirish, yalpisiga xalq savodxonligiga erishish, ilm-ma'rifat chashmalaridan hammani to'la bahramand etish emas, balki eng avvalo, yurt farzandlari ongiga, shuuriga kommunistik g'oyalar va ideallarni chuqr singdirish va shu yo'1 bilan o'zlariga qulq qoqmay xizmat qiladigan «mo'min-qobil» avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish edi. Sovetlar avval boshda O'zbekistondagi murakkab vaziyatni, mahalliy xalq kayfiyati va ruhiyatini, uning o'ziga xos milliy an'analarini, islomiy qadriyatlarni bir qadar

hisobga olib, bu yerda eski va jadid usulidagi mäktablar yoki madrasalarning ham bir vaqtning o‘zida faoliyat yuritishiga monelik ko‘rsatmadi. Buning orqasida bu o‘quv dargohlari navqiron avlodga ta’lim berish, ulug‘ bobokalonlar merosi va sharqona odob, axloq ruhida tarbiyalashda o‘z ulushini qo‘shib bordi. Lekin sovet arboblari va mafkurachilarining bu vaqtinchalik taktikasi uzoqqa bormadi. Ular o‘lka hayotiga moslashib, biroz tomir yozib olgach, 20-yillar o‘rtalaridan e’tiboran o‘zbek xalqi ma’naviy hayotining ko‘p zamonlar uzviy tarkibiy qismi bo‘lib kelgan eski maktab va madrasa ta’lim-tarbiya tizimini barham toptirdi. Uning ko‘p sonli ziyoli vakillari, mullalari-yu mudarrislari faoliyati to‘xtatib qo‘yildi. Ularning taqdir-qismati hayotning og‘ir sinovlariga duchor etildi. Bu ham sovetlarning tili boshqa-yu, dili boshqa ekanligidan, ularning madaniy siyosati zamirida qanday makkorona maqsadlar yashiringanligidan yaqqol dalolat beradi. O’sha davrga oid tadqiqotlarda O’rta Osiyo yerlarining "qo‘shib olinishi"ning ("bosib olinishi" atamasi tadqigotchilar lug’at boyligida mutlago uchramaydigan bo‘lib qoldi) iqtisodiy, siyosiy, madaniy oqi-hatlariga taallugli umumiyligini qarash, yagona nuqtai nazarni uchratmaysiz.

Ko‘pgina tadqiqotchilar O’rta Osiyoning kapitallashtiriluvini "qo‘shib olinishning" progressiv oqibati sifatida talqin etadilar. Ammo, boshqa bir tadqiqotchilar fikricha, bu fikrni ilgari suruvchi olimlar "qo‘shilish" birinchi navbatda chekka o‘lkalar xalqlari uchun revolyutsion harakat-ga tortilishga olib kelganligini to‘g’ri baholay olishmagan. Masalan, A.G. Zimma kabi bir qator mualliflar esa Turkiston istilo qilinishi-ning "avvalo harbiy - siyosiy ahamiyatini" gina hisobga olishgan xo-los. Ular bu fikrlarini hukumatning qo‘shib olingan o‘lkalar uchun qil-yotgan xarajati daromadlaridan yuqori bo‘lganligi bilan isbotlamoqchi bo‘ladilar. Bu o‘rinda ikki narsa hisobga olinmagan: Chor hukumati dastlabki chiqimlarini (masalan, irrigatsiya inshootlarini bunyod etish uchun) ongli ravishda kiritganki, uni keyinchalik ko‘p karra ko‘pay-tirib chiqarib olishi aniq edi. Bunday siyosat mustamlakachi davlat-lar tajribasida odatda tashqari hodisa hisoblanmaydi, Bundan tashqari, markaziy Rossiya burjuaziyasi Turkiston ma’muriyati chiqimlarining yugori yoki pastligiga qaramasdan, dehqonlar va ishchi mehnatkashlar hisobidan cho‘ntaklarini gappaytirishni sira unutmas edilar. 1920-yil 17-sentabrda Turkiston ASSR hukumati o‘lkada 8 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan kishilarni o‘qitish va savodxon qilish

to‘g‘risida dekret qabul qildi. Bundan ko‘zda tutilgan maqsad mahalliy xalqni tobora sovetlar siyosati va mafkurasi ta’siriga olish, uning yangi tuzumga xayrixohligini kuchaytirish edi. Shularni hisobga olib respublikaning turli hududlarida sonsanoqsiz savodsizlikni tugatish kurslari tashkil etilib faoliyat ko‘rsatdi. Ularga turli yoshdagi kishilar, erkaklar va ayollar jalb qilinib, o‘z savodlarini chiqardilar. Jumladan, 1928—1932-yillarda O‘zbekistonda jami 700 ming nafar kishi savodsizlik kurslarini tugatgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1933—1937-yillarda 1,4 mln kishini tashkil qildi. Respublikada boshlang‘ich ta’lim tizimining joriy etilishi, keyinroq 7 yillik ta’limga o‘tilishi ham xalq ta’limi sohasidagi muhim o‘zgarishlardan biri bo‘ldi. Maktab qurilishi, uning malakali o‘qituvchi kadrlar bilan ta’milanishi, o‘quvchilar soni yil sayin o‘sib bordi. Sovet davri statistik ma’lumotlariga qaraganda, agar 1924/25-o‘quv yilida O‘zbekistonda 160 ta sovet tipidagi maktablar tashkil qilinib, ularda 17209 nafar o‘quvchi ta’lim olgan bo‘lsa, 1941-yilga kelib bunday maktablar soni 5504 taga va ularda ta’lim olayotgan o‘quvchilar soni esa 1 mln 315 ming nafarga yetgan. Sovet hukumati ta’lim tizimini, yangi avlod tarbiyasini to‘liq ravishda o‘z izmiga bo‘ysundirish maqsadida arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvini ham tubdan isloh qilishga kirishdi. Shu maqsadda 1929-yilda arab imlosi asosidagi o‘zbek yozuvi tugatilib, undan lotin grafikasiga o‘tildi. Bundan ko‘p vaqt o‘tar-o‘tmasdani, 1940-yilga kelib sovetlarning birdan bir yagona orzusi bo‘lgan kirill — rus alifbosi negiziga qurilgan yozuvga o‘tildi. Birgina o‘zbek yozuvini o‘zgartirish borasida qo‘llanilgan bunday xattiharakatlar respublika xalq ta’limining keyingi taqdiri, istiqboli uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqardi. Eng achinarlisi, buning natijasida necha asrlar davomida xalq dahosi, buyuk bobokalonlarimiz aql-zakovati tomonidan yaratilgan bebafo ma’naviy manbalar, asarlar, risolalarni o‘rganish mushkul muammoga aylanib qoldi. Negaki, ular arab yozuvida bitilgan edi-da! Bu ham yangi avlodni o‘z asliy sarchashmalaridan, milliy tarixidan mahrum etib borishning o‘ziga xos ayyorona yo‘li, ko‘rinishi bo‘lgan edi. Shu bilan birlikda yangi tashkil etilgan ta’lim maskanlari, maktablarning moddiy bazasi, ularning o‘quv dasturlari, qo‘llanmalari va darsliklar hamda boshqa zarur jihozlar bilan ta’milanish darajasi ham mutlaqo talabga javob bermas edi. Agar 20-yillarda respublikada o‘qitish jarayoni bir qadar milliy ziyoli olimlar, yetuk

pedagog mutaxassislar tomonidan tayyorlangan o‘quv qurollari, darsliklar asosida tashkil etilgan bo‘lsa, 30- yillardan e’tiboran ahvol keskin o‘zgardi.

### Xulosa

Sovet davrida yuritilgan madaniyat va ma’rifat siyosati jamiyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynadi. Savodsizlikni tugatish, ommaviy ta’lim tizimini yaratish, san’at va adabiyotni rivojlantirish orqali yangi avlodning ijtimoiy-siyosiy ongini shakllantirishga erishildi. Shu bilan birga, madaniy va ma’rifiy sohalarda olib borilgan siyosat ko‘pincha mafkuraviy maqsadlarga xizmat qilgani, milliy qadriyatlar va an’anaviy madaniyat unsurlarining cheklanib qolishiga olib kelgani ham kuzatildi. Umuman olganda, sovet madaniyati va ma’rifati jamiyatning ilmiy, madaniy va texnik salohiyatini oshirishda, ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Xolmuhammadov, Sh. (2005). O‘zbekiston tarixi: XX asrning boshlaridagi siyosiy o‘zgarishlar. Toshkent: Akademnashr.
2. Abdullayev, M. (2001). Sovet davrida O‘zbekistonning ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlari. Toshkent: O‘zbekiston xalq nashriyoti.
3. Mirzaeva, S. (2010). Kommunizm mafkurasining tarixi va uning O‘zbekistondagi ta’siri. Tashkent: Fan.
4. Aliyev, R. (2015). Sovet davridagi madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlar. Tashkent: Sharq.
5. G‘ulomov, I. (1998). O‘zbekiston kommunizm mafkurasining ilgari surilishi. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti